



TERINING ALLERGIK KASALLIKLARI

G'ijduvon Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Terpiya fani o'qituvchisi

Azizova brilyant Baxtiyorovna

Telefon:906146623

Kalit so'zlar: *Dermatit, toksikodermiya, eczema, autoagressiv, autoallergik, autoimmun, sensibilizasiya, endogen, ekzogen.*

Annotasiya: *Maqolada terining allergik kasalliklarining skelib chiqish sabablari oldini olish, asoratlari va davolash haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Ключевые слова: *Дерматит, токсикодермия, экзема, аутоагрессивный, аутоаллергический, аутоиммунный, сенсibilизация, эндогенный, экзогенный*

Аннотация: *В статье приведены сведения о причинах, профилактике, осложнениях и лечении аллергических заболеваний кожи.*

Key words: *Dermatitis, toxicoderma, eczema, autoaggressive, autoallergic, autoimmune, sensitization, endogenous, exogenous*

Abstract: *The article provides information on the causes, prevention, complications, and treatment of allergic skin diseases*

Yer shari aholisining 10% ga yaqini allergik kasalliklardan aziyat chekadi. "Allergiya" termini 1906-yilda Venalik pediatr Klemens Fon Pirke tomonidan kiritilgan.

Yer shari aholisining 10% ga yaqini allergik kasalliklardan aziyat chekadi. "Allergiya" termini 1906-yilda Venalik pediatr Klemens Fon Pirke tomonidan kiritilgan. Uning aniqlashicha ba'zi bir odamlarda kuzatilayotgan simptomlar atrof-muhitdagi ma'lum bir moddalar (allergenlar) tomonidan (chang, o'simliklar changi yoki ba'zi ovqatlar) chaqirilgan. Ko'p yillar davomida o'ta sezuvchanlik IgE funksiyasining buzilishi natijasida kelib chiqadi deb hisoblangan, lekin shu narsa



ma'lum bo'ldiki, turli xil kimyoviy moddalar ishtirokidagi ko'pgina mexanizmlar "Allergiya" deb nomlangan bir talay simptomlarni chaqiradi

Allergiya – bu tashqi va ichki ta'sirlantiruvchilarga organizmning xususiy to'qimasining jarohatlanishi bilan kechuvchi immunreaksiya. Organizmni sensibilizatsiya (yuqori sezuvchanlik) qiluvchi va allergiya chaqiruvchi qo'zg'atuvchi allergen deyiladi.

Asosida to'qimalarning immunreaksiyasi natijasida jarohatlanishi yotuvchi kasalliklar allergik kasalliklar deyiladi. Endogen allergenlar organizmning o'zida hosil bo'ladi va autoallergenlar deyiladi. Patogenezida autoallergenlarga nisbatan allergik reaksiya yotuvchi kasalliklar autoimmun (autoagressiv, autoallergik) kasalliklar deyiladi. Allergik reaksiyalarning sekin va tez kechuvchi turlari farqlanadi. Tez kechuvchi allergik reaksiya turi allergen ta'siridan 15-20 minutdan so'ng rivojlanadi. Bu guruhga kiruvchi ko'p uchrovchi kasalliklar quyidagilar: Ekzema, neyrodermit, eshakemi.

Allergik dermatit

Terining sekin rivojlanuvchi allergiya chaqiruvchi moddalar bilan aloqasi natijasida kelib chiqadi. Allergik dermatitda terining shikastlanishi allergen bilan kontakt natijasida kelib chiqadi va umumiy lashgan xarakterga ega bo'lishi mumkin. Klinik jihatdan bu turli xil toshmalar: papula, vezikula kabi namoyon bo'ladi. Allergik dermatitning o'ziga xos formasi bo'lib fotodermatit hisoblanadi. Bu dermatit asosida ultrabinafsha nurlar ishtirokidagi fotoallergik reaksiya yotadi.

Davolash va bemorlar parvarishi

Davolash kasallikni keltirib chiqaruvchi faktorni yo'qotishdan iborat. Chegaralangan teri jarayonlarida mahalliy davo tavsiya qilish kifoya. O'tkir davrida esa pufaklar vodorod peroksid, furatsillin, kaliy permanganat eritmasi yoki spirt bilan yuviladi. Pufaklar qoplami steril qaychi bilan kesiladi. Eroziya mavjudligida esa antiseptik eritmalar qo'yib bog'lab qo'yiladi. Jarohat o'rni ivitilgach ruxli pasta, Lassar pastasi, kortikosteroid mazlar qo'llaniladi. Terining tarqalgan xarakterdagi jarohatida giposensibilizatsiya qiluvchi davo: Kalsiy xlorid, Natriy tiosulfat, antigistamin preparatlar buyuriladi. Terining kislotalar va ishqorlarning



konsentrlangan eritmalari bilan jarohatlanishida – terini issiq suvda uzoq vaqt yuvish tavsiya etiladi

Toksikodermiya

O'tkir yallig'lanuvchi dermatoz, allergenning organizm ichiga kirishi natijasida kelib chiqadi. Dermatitdan farqi – allergen teriga gematogen yo'l bilan tushadi. Toksikodermiyaning sabablari asosan dorivor vositalardan: uxlatuvchi dorilar, analgetiklar, antibiotiklar va yana ovqat mahsulotlari. Toksikodermiya og'irlik darajasiga ko'ra yengil va og'ir, tarqalganligiga ko'ra chegaralangan va tarqalgan turlarga bo'linadi.

Chegaralangan toksikodermiya Terida yoki shilliq qavatda bir yoki bir necha pufak elementlarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ko'pincha yumaloq shakldagi eritematoz dog'lar, kam hollarda esa urtikar yoki bulyoz elementlar paydo bo'ladi. Chegaralangan dorivor eritema asosan qorin pastki qismi terisida, yorg'oqda, sonda joylashadi.

Tarqalgan toksikodermiya

Og'ir kasallik hisoblanadi. Teridagi pufaklar intoksikatsiya bilan birga kechadi. Bemorlarda, bo'g'imlarda og'riq, chanqash, qorin dam bo'lishi kuzatiladi. Teridagi pufaklar tarqalgan polimorf shaklda: dog'lar, qavariqlar, kam hollarda gemorragik mahsulotli vezikulalar uchraydi. Toksikodermiyaning og'ir formasi bo'lib Layel sindromi yoki o'tkir epidermal nekroliz hisoblanadi. Teri bilan birgalikda og'iz bo'shlig'i, ko'z, jinsiy organlarning shilliq qavatini zararlanadi. Traxeya va bronxlarning epiteliy qavatini ko'chishi kuzatiladi. To'liq klinik kartinasi 12-36 soatdan keyin, ba'zan esa bir necha sutkadan so'ng namoyon bo'ladi. Bunday bemorlarning tashqi ko'rinishi kuyishning II darajasiga o'xshash. O'z-o'zidan ichki organlar (jigar, o'pka, bosh va orqa miya, buyrakusti bezi) zararlanishi va suvsizlanish simptomi ham qo'shiladi. Bemor o'limi kasallikning 4-dan 26-kunlarigacha sodir bo'lishi mumkin.

Davosi va parvarishlash

Bemorlarni davolash ta'sirlantiruvchi modda ta'sirini cheklash va uni organizmdan chiqarib tashlashga qaratilgan. Ichishga desensibilizatsiyalovchi,



antigistamin preparatlar, siydik haydovchi, ichni suradigan dori preparatlari tavsiya etiladi. Mahalliy qo'llashga esa qichimaga qarshi aralashmalar, yaxlatuvchi kremlar yoki kortikosteroid mazlar ishlatiladi. O'tkir epidermal nekrolizli bemorlarni davolash reanimatsiya bo'limlarida o'tkaziladi va suv-elektrolit balansini saqlashni o'z chiga oladi. Keng ko'lamli jarohatlanishida xuddi kuyishdagi singari tashqi davolash choralari o'tkaziladi. Suyuq yoki qaynatilgan ovqatlar, oqsil, vitaminlarga boy ovqatlar buyuriladi. O'g'izning shilliq qavati zararlanishida burushtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va og'riqsizlantiruvchi vositalar buyuriladi. Agar yutish qiyinlashsa halqum huqnasi o'tkaziladi. Ko'zlarni bor kislotasi bilan yuviladi, ruxli tomchilar, gidrokortizonli maz qo'llaniladi.

Ekzema

Ekzema – terining yuza qavatini nevro-allergik xarakterdagi zararlanishi. Turli xil tashqi va ichki ta'sirlar natijasida tug'ma yoki orttirilgan alohida sezuvchanligi bo'lgan odamlarda kelib chiqadi. Shuning uchun ekzemani ta'sirlantiruvchiga terining individual javobi sifatida qaraladi. Tashqi ta'sirlantiruvchilarga barcha mexanik, kimyoviy, termik, yorug'lik, meteorologik va boshqa faktorlar, ichki faktorlarga esa – ichki organlar, ichki sekretsiya bezlari va nerv sistemasining barcha kasalliklari misol bo'ladi. Kechishiga ko'ra o'tkir va surunkali ekzema farqlanadi.

O'tkir eczema

Kasallik terining shishli qizarishi bilan boshlanib, hech qanday chegarasiz yondosh sog'lom teriga tarqaladi. Keyinchalik bu yallig'lanish fonida och qizil rangli kichik tugunlar paydo bo'ladi, ular tezlikda o'zida tiniq suyuqlik saqlovchi pufakchalarga aylanadi. Aksariyat hollarda bu pufak mahsuloti yiringga aylanadi. Keyinchalik ba'zi hollarda pufak mahsuloti so'rilib ketadi, ba'zi hollarda pufaklar och qizil eroziyalar qoldirib yoriladi. Agar pufakchalar ko'p bo'lsa, ular zich joylashadi va qo'shilib ketadi, hosil bo'lgan pufak yorilishidan qoluvchi eroziya katta maydonni egallaydi.

Surunkali eczema



Ko'pchilik hollarda ekzema bir necha oy, ba'zan yillab davom etishi mumkin. Surunkali ekzemaning kechishi retsidivlangan. Kuchayish davrida teridagi o'zgarishlar xuddi o'tkir formasidagidek. Ekzemaning xarakterli belgilari xuddi o'tkir shaklidagidek – yaqqol qichish, simmetrik pufaklar paydo bo'lishi, polimorf pufaklar. Ekzemaning turli xillari farqlanadi.

Mikroblilik ekzema

Asosan oyoqda joylashuvchi qat'iy chegarali o'choqlar, o'zida yiringli mahsulot saqlovchi assimetrik pufaklar. Ekzemaning bu formasini kelib chiqishida yiring mikroblari katta rol o'ynaydi. Mikroblilik ekzema atrofga tarqaluvchi uzoq vaqt tuzalmaydigan yara hosil qiluvchi hisoblanadi va paratravmatik deb nomlanadi. Ekzema o'choqlari ba'zan yiringli qoplam bilan qoplangan bo'ladi.

Haqiqiy ekzema

Asosan bolalarda uchraydi, ma'lum bir joyda uchramaydi, va retsidivlovchi uzoq vaqt kechishi bilan farq qiladi. Ekzema bolalarda bir qator o'ziga xosliklarga ega. Shu narsa tasdiqlanganki, kasallikni kelib chiqishida ko'plab faktorlar mavjud: homiladorlik toksikozi, ovqatlanishdagi kamchiliklar, profilaktik emlashning buzilishi. Bemorlarning ko'pchiliklarida oilaviy moyillik aniqlangan. Bolalarda kasallik patogenezida invaziya hamda ko'p shirinlik iste'mol qilish asosiy rol ni o'ynaydi.

Seboreyali ekzema

Asosan boshning sochli qismini, yuzni, gavdaning orqa qismini zararlaydi va qoplamalar bilan qoplangan, yallig'lanish dog'lari va tugunchalardan iborat bo'ladi. Dog'lar sarg'ish rangda, aniq chegarali, noto'g'ri konturli, qo'shilishga moyillikka ega. Pufaklar hosil bo'lmaydi va ko'pincha ivishlar bo'lmaydi yoki ma'lum uchastkalarda mushakosti, chovda bo'shliqlarning paydo bo'lishi bilan hamda qichishishlar xarakterli.

Davolash va parvarishi

Davolashni boshlashdan oldin bemorni astoydil tekshirish lozim: nerv sistemasi, ichki organlari, ichki sekretiya bezlari va h.k. Kasallikni tekshirishda aniqlangan qo'shimcha kasalliklarni davolash ekzematoz jarayonni yo'qotishi



mumkin. Ovqatlanish rejimini nazorat qilish katta ahamiyatga ega: uglevodlarga boy ovqatlarni cheklash, shakar miqdorini nazorat qilish. Tuzsiz yoki tuzi chegaralangan ovqatlarni iste'mol qilish katta foyda keltiradi.

Adabiyotlar: **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:** E.H.Eshboyev "Teri va tanosil kasalliklari", N.S.Ismoilova "Atlas"

Qo'shimcha adabiyotlar: Axmedova M.D., Obloqulov A.R., Boboxo'jaev S.N. Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi. Tashkent, 2007.8

1. Axmedova M.D., Obloqulov A.R., Boboxo'jayev S.N. Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi. Buxoro, 2007.

2. Axmedova M.D., Obloqulov A.R., Boboxo'jayev S.N. Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi. Buxoro, 2014.

3. Zakirxodjaev A.X. Detskie infektsionnye bolezni. T., 2008.

4. Uchaykin V.F. Infektsionnye bolezni u detey. M., 1998.

5. Zokirxo'jaev A.X. Bolalar yuqumli kasalliklari. T., 2008.

6. Majidov V.M. Yuqumli kasalliklar. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1995.

1. "Hamshiralik ishi asoslari" K.O' Zokirova.

2. "Hamshiralik ishi asoslari" Q. Inomov.

Foydalaniladigan internet manbalari.

<https://www.askapollo.com/physical-appointment/dermatologist>

<https://www.apollohospitals.com/patient-care/health-and-lifestyle/understanding-investigations/allergy-tests>

<https://www.apollohospitals.com/patient-care/health-and-lifestyle/diseases-and-conditions/contact-dermatitis/>